



## MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI

### CHARACTERISTICS OF USING FINANCIAL TECHNOLOGIES

<sup>1</sup>**Abduraxmonova  
Ziyoda Abdullayevna**

<sup>1</sup>*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

#### Annotatsiya Abstract

**Uzb.** - Moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosliklarini o'rganishda turli iqtisodchi olimlarning ilmiy fikrlari va mulohazalari o'rganilgan. Moliyaviy texnologiya loyihalarining iqtisodiyotdagi hamda moliya tizimidagi o'rni, turlari hamda xalqaro amaliyotdagi ayrim ko'rsatkich tahlil qilingan. Olib borilgan tahlillar asosida xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

**Eng.** - In studying the specifics of the use of financial technologies, the scientific opinions and opinions of various economists were studied. The role of financial technology projects in the economy and the financial system, their types, and some indicators in international practice were analyzed. Based on the analysis, conclusions and proposals were formulated.

#### Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *moliyaviy texnologiyalar, robo-maslahatchi, moliyaviy inklyuziya, Big Data, neo banking, regTech, investitsiya.*

❖ *financial technologies, robo-advisor, financial inclusion, Big Data, neo banking, regTech, investment.*

#### Kirish.

Moliya tizimi kelajagi sifatida moliyaviy texnologiya loyihalari tobora kengayib, ularning iqtisodiyotni modernizatsiya qilishdagi roli oshib bormoqda. Moliyaviy texnologiyalar an'anaviy bank xizmatlarini raqamlashtirish orqali samaradorlikni keskin oshirish imkonini bermoqda. Bu jarayon kreditlash, to'lov tizimlari, investitsiya boshqaruvi va sug'urta faoliyatida yangi bosqichni boshlab berdi. Moliyaviy texnologiya loyihalari moliyaviy xizmatlardan foydalanishni tez, qulay va xavfsiz qilishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, blokcheyn texnologiyalari orqali shaffoflik va ishonchlilik darajasi sezilarli ravishda ortmoqda. Raqamli to'lov tizimlari global moliya tizimining

ajralmas qismi sifatida rivojlanib, xalqaro savdoni tezlashtirmoqda.

Regulyatorlar uchun ham moliyaviy texnologiyalar loyihalari yangi chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda. Moliyaviy texnologiyalar yordamida xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik samaradorligi oshmoqda. O'zbekiston uchun ham bu yo'nalishda imkoniyatlar keng, chunki raqamli iqtisodiyot rivojlanish bosqichida hisoblanadi. Moliyaviy texnologiya loyihalari banklarning barqarorligini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, ular kapital bozorining faollashuviga yordam bermoqda. Moliyaviy texnologiyalar orqali aholining moliyaviy resurslarga bo'lgan kirish imkoniyati kengaymoqda. Sun'iy intellekt,

katta ma'lumotlar va bulutli texnologiyalar moliya tizimining transformatsiyasini tezlashtirmoqda. Moliyaviy texnologiyalar xalqaro investitsiya muhitini yanada jozibador qilmoqda. Shu sababli moliyaviy texnologiyalar loyihalarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Yuqorida ta'kidlangan jihatlar ko'rsatadiki, moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosliklarini o'rganish dolzarb hisoblanadi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Hozirgi vaqtda robo-maslahatchilar investitsiya fondlariga raqobatchi sifatida moliya bozorida keng foydalaniladi. "Robo-maslahatchilar bu investorlarga moliyaviy maslahat berish uchun avtomatlashtirilgan algoritmlardan foydalanadigan mexanizatsiyalashgan platformalar hisoblanadi. Robo-maslahatchilar nafaqat foydalanishdagi qulaylik va arzon narxlardagi maslahatlarni taqdim etishadi, balki riskni hisobga olgan holda ishlashda ham samaradorlikka ega" [1].

A.Karimov fikricha "kapital bozorlariga yangi moliyalashtirish instrumentlarini joriy etish orqali investor ishonchini mustahkamlashga urg'u beradi, bu esa biznes moliyasini raqamli transformatsiya orqali diversifikatsiyalashni talab qiladi" [2].

S.Fayziyev esa "energetika kompaniyalarida avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining joriy qilinishi operatsion samaradorlikni oshirib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil ekanini ko'rsatadi. Ularning tavsiyalari O'zbekistonda raqamli moliyaviy boshqaruvni modernizatsiya qilish strategiyalarini shakllantirishda muhim manba" [3] bo'lishini qayd etgan.

Iqtisodchi olimlardan S.Yakubova va M.Po'latova tomonidan tayyorlangan maqolada "kichik va o'rta biznesni raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish strategiyalari atroflicha tahlil qilingan. U elektron tijorat, bulutli

xizmatlar va sun'iy intellektni joriy etish orqali kichik korxonalar xarajatlarni optimallashtirish bilan birga raqobatbardoshlikni kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlaydi" [4].

"Bugungi kunda robo-maslahatchilardan investitsiya faoliyatida foydalanish institutsional investitsiyalarni boshqarishning bir usuli sifatida ham qaralmoqda. Strategiyalarni boshqarish bo'yicha miqdoriy yondashuvlar investitsiya banklari va institutsional investitsiya menejerlari tomonidan qo'llanilib kelinadi, biroq robo-maslahatchilar xizmatlari institutsional darajadagi pulni samarali boshqarish imkoniyatini beradi" [5].

Raqamli inkluziya moliyasi mavzusi bo'yicha 2023-yilda nashr etilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, "moliyaviy inklyuziv xizmatlarni kengaytirish va ularni raqamli platformalar orqali joriy etish korxonlarning raqamli transformatsiya darajasini oshirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa innovatsion imkoniyatlar yaratuvchi, yuqori darajadagi moliyaviy savodxonlikka ega bo'lgan rahbariyat mavjud firmalarda bu effekt aniqroq bo'ladi" [6]. Bu tendensiya raqamli transformatsiyaning korporativ moliyaviy boshqaruvni mustahkamlashda bevosita vosita ekanligiga urg'u beradi. Afrika mamlakatlari bo'yicha o'tkazilgan 2024-yilgi empirik tadqiqotga qaratilgan tahlillarda "raqamli infratuzilma (ICT) investitsiyalari moliyaviy sektor strukturasini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shayotgani, bu esa pirovardida bank xizmatlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirib mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojiga zamin yaratishi" [7]ni ko'rsatgan.

Shunday qilib, bu natijalar "raqamli transformatsiyaning biznes moliyasini rivojlantirishda zamonaviy makroiqtisodiy siyosat yo'nalishlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Xitoy tajribasiga asoslangan so'nggi ilmiy izlanishda raqamli transformatsiya korporativ moliyaning virtual

holatga o'tishiga qarshi tura oladigan mexanizm sifatida ko'rsatildi: u banklarning real sektor bilan aloqasini mustahkamlab, moliyaviy barqarorlik va operatsion samaradorlikni oshiradi" [8].

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, moliyaviy texnologiyalar loyihalarini iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Bu loyihalar yordamida davlat byudjeti resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratilmoqda.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosliklarini o'rganishda taqqoslama tahlil, statistik tahlil, analiz, sintez, ilmiy mushohada kabi tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Moliyaviy texnologiya loyihalarining ahamiyatli jihatlari zamonaviy iqtisodiyotda moliya tizimining kelajagini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Bu loyihalar moliyaviy xizmatlarning tezligi, qulayligi va shaffofligini oshirish orqali aholiga keng imkoniyatlar yaratadi. Moliyaviy texnologiyalar innovatsiyalari orqali an'anaviy bank amaliyotlari raqamli shaklga o'tkazilib, mijozlarga masofadan xizmat ko'rsatish kengaytiriladi. Shuningdek, moliyaviy texnologiyalar banklarning operatsion

xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. Bunday yondashuv natijasida kreditlash jarayonlari tezlashib, qaror qabul qilishda sun'iy intellekt va algoritmlar samarali qo'llaniladi.

Moliyaviy texnologiya loyihalarining iqtisodiyotdagi o'zni zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bevosita bog'liq bo'lib, ular iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri hisoblanadi. Bu loyihalar moliya tizimini modernizatsiya qilish orqali iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Raqamli to'lov tizimlari orqali ichki savdo jarayonlari tezlashadi va naqd pulsiz hisob-kitoblarning ulushi ortadi. Shu bilan birga, moliyaviy texnologiyalar iqtisodiy muomaladagi shaffoflikni kuchaytiradi va korrupsiya xavfini kamaytiradi. Mobil banking xizmatlari aholining keng qatlamlariga moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini yaratadi. Natijada, moliyaviy inklyuziya darajasi oshib, iqtisodiy tenglikni ta'minlashga hissa qo'shiladi (1-jadval). Moliyaviy texnologiya loyihalarini qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishiga ham katta hissa qo'shmoqda. Onlayn brokerlar aksiyalar va obligatsiyalarga kirishni osonlashtirmoqda, moliyaviy texnologiyalar esa sug'urtada xavflarni boshqarish va xizmatlarni avtomatlashtirishni ta'minlaydi.

1-jadval

### **Moliyaviy texnologiya loyihalarining iqtisodiyotdagi o'zni [9]**

| <b>Nº</b> | <b>Iqtisodiyotdagi o'zni</b>                       | <b>Mazmuni</b>                                                                                           |
|-----------|----------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1         | <b>Raqamli transformatsiya drayveri</b>            | Moliya tizimini modernizatsiya qilib, iqtisodiyotning barcha sohalarida samaradorlikni oshiradi.         |
| 2         | <b>Naqd pulsiz iqtisodiyotni rivojlantirish</b>    | Raqamli to'lov tizimlari savdo jarayonlarini tezlashtiradi va pul aylanishini kuchaytiradi.              |
| 3         | <b>Shaffoflikni ta'minlash</b>                     | Blokcheyn va raqamli platformalar korrupsiya xavfini kamaytiradi.                                        |
| 4         | <b>Moliyaviy inklyuziya</b>                        | Aholining barcha qatlamlariga, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchilarga moliyaviy xizmatlar yetkaziladi. |
| 5         | <b>Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash</b> | Kraudfanding va onlayn kreditlash platformalari tadbirkorlikni rivojlantiradi.                           |
| 6         | <b>Investitsiya muhitini yaxshilash</b>            | Moliyaviy texnologiyalar sohasining rivojlanishi xorijiy kapital oqimini jalb qiladi.                    |
| 7         | <b>Kapital bozorini faollashtirish</b>             | Onlayn brokerlik xizmatlari qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantiradi.                                  |
| 8         | <b>Innovatsion ekotizim yaratish</b>               | Startup tashabbuslarini qo'llab-quvvatlab, yangi tarmoqlarni shakllantiradi.                             |
| 9         | <b>Sug'urta tizimini rivojlantirish</b>            | Raqamli sug'urta xizmatlari xavflarni boshqarishni yengillashtiradi.                                     |
| 10        | <b>Xalqaro integratsiyani kuchaytirish</b>         | Global moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.                                           |

Moliya tizimida davlat xarajatlarini nazorat qilishda ham raqamli yechimlar samarali qo'llaniladi. Bu esa byudjet mablag'larining shaffofligini ta'minlashga xizmat qiladi. Moliyaviy texnologiyalar loyihalari investitsiya muhitini yaxshilab, xorijiy kapital oqimini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, moliyaviy texnologiyalar iqtisodiyotdagi innovatsion muhitni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Ularning moliya tizimidagi roli kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda ham yaqqol namoyon bo'ladi. Kraudfanding platformalari tadbirkorlar uchun yangi moliyalashtirish manbalarini taqdim etadi. Moliyaviy texnologiyalar regulyatorlar uchun ham yangi vazifalarni yuzaga keltirib, nazorat mexanizmlarini kuchaytiradi. Bu

jarayon moliya tizimidagi xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlaydi. Moliyaviy texnologiyalar loyihalari xalqaro hisob-kitoblarni tezlashtirib, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda hamda moliya tizimida innovatsion yechimlarning joriy etilishida muhim o'rin tutmoqda. Shuningdek, aholi va biznes subyektlarining moliyaviy savodxonligini rivojlantirish imkoniyati yaratiladi. Moliyaviy texnologiyalar loyihalari orqali yoshlarning startap tashabbuslari qo'llab-quvvatlanib, innovatsion ekotizim shakllanadi. Moliyaviy texnologiyalar yordamida banklarning xizmat ko'rsatish sifati oshib, mijozlarga yangi imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa moliya tizimining kelajagi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval

**Moliyaviy texnologiya loyihalarining moliya tizimidagi roli [10]**

| Nº | Yo'nalishlar                            | Roli                                                               | Ta'siri                                                    | Erishiladigan natijalar                       |
|----|-----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------|
| 1  | Bank xizmatlarini modernizatsiya qilish | An'anaviy xizmatlarni raqamlashtirish                              | Tezkor operatsiyalar va xizmat sifati oshadi               | Bank tizimining raqobatbardoshligi kuchayadi  |
| 2  | Moliyaviy inklyuziya                    | Moliyaviy xizmatlardan keng foydalanishni ta'minlash               | Qishloq hududlarida ham moliyaviy xizmatlar mavjud bo'ladi | Aholi daromadlari va iqtisodiy faollik ortadi |
| 3  | Operatsion xarajatlarni kamaytirish     | Avtomatlashtirilgan tizimlarni joriy etish                         | Xarajatlar qisqaradi, xizmatlar arzonlashadi               | Bank foydaliligi oshadi                       |
| 4  | Kredit risklarini boshqarish            | Sun'iy intellekt yordamida baholash                                | Risklar tezkor aniqlanadi va kamayadi                      | Kredit portfeli sifatining yaxshilanishi      |
| 5  | Mobil banking rivoji                    | Mobil ilovalar orqali xizmatlar ko'rsatish                         | Istalgan joyda xizmatlardan foydalanish imkoniyati         | Aholi uchun qulaylik va vaqt tejilishi        |
| 6  | Qimmatli qog'ozlar bozori               | Onlayn brokerlik xizmatlarini rivojlantirish                       | Investorlar uchun qulay kirish imkoniyati                  | Kapital bozorining faollashuvi                |
| 7  | Sug'urta xizmatlari                     | Raqamli sug'urta platformalari                                     | Xizmat tezkor va shaffof bo'ladi                           | Sug'urta bozori rivojlanadi                   |
| 8  | Investitsiya jalb qilish                | Xorijiy investorlar uchun jozibador muhit yaratish                 | Investitsiya oqimlari ko'payadi                            | Milliy iqtisodiyot rivojlanadi                |
| 9  | Innovatsion moliyaviy mahsulotlar       | Yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqish                         | Turli ehtiyojlarga moslashuvchan xizmatlar yaratiladi      | Mijozlar qoniqishi ortadi                     |
| 10 | Raqobatni kuchaytirish                  | Neobanklar va moliyaviy texnologiyalar kompaniyalar paydo bo'lishi | Banklar o'rtasida sog'lom raqobat yuzaga keladi            | Xizmat sifati va xilma-xilligi oshadi         |

Moliyaviy texnologiyalar zamonaviy iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mobil banking, raqamli to'lov tizimlari va blokcheyn texnologiyalari

iqtisodiyotda tobora keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Moliyaviy texnologiyalar turlarini

o'rganish orqali ularning afzalliklari va ehtimoliy xavflarini aniqlash imkoniyati yaratiladi. Xalqaro amaliyotda keng qo'llanilayotgan InsurTech, RegTech va robo-maslahatchilar moliya bozorida yangi imkoniyatlarni ochmoqda. Ularni chuqur o'rganish moliya tizimi barqarorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Qolaversa, moliyaviy texnologiyalar turlarini bilish regulyatorlar uchun ham muhim bo'lib, u nazoratni kuchaytirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlar uchun esa turli moliyaviy texnologiyalar yechimlari yangi moliyalashtirish manbalarini topishda yordam bermoqda. Jadvaldan ko'rinadiki, mobil banking va raqamli to'lov tizimlari moliya xizmatlarining ommaviylashuvida muhim rol o'ynab, aholining kundalik moliyaviy operatsiyalarini sezilarli darajada soddalashtirmoqda. Blokcheyn va kriptovalyuta texnologiyalari esa moliyaviy operatsiyalarda shaffoflik va xavfsizlikni oshirish bilan birga, yangi raqamli aktivlar

bozorining shakllanishiga xizmat qilmoqda. Kraudfanding mexanizmi an'anaviy moliyalashtirish manbalariga muqobil sifatida startaplar va ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash imkonini kengaytirmoqda. Robo-maslahatchilar sun'iy intellekt asosida investitsion qarorlar qabul qilish jarayonini avtomatlashtirib, individual investorlar uchun moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirmoqda. InsurTech texnologiyalari sug'urta bozorida operatsion samaradorlikni oshirib, risklarni tezkor va aniq baholash imkonini bermoqda. RegTech yechimlari moliyaviy institutlarning qonuniy muvofiqlik talablariga rioya etishini ta'minlashda muhim vositaga aylanmoqda. Neobanklar esa an'anaviy bank modellarini transformatsiya qilib, to'liq raqamli bank xizmatlarini joriy etmoqda. Big Data va sun'iy intellekt texnologiyalari kredit risklarini baholash va mijozlar xatti-harakatini prognoz qilishda strategik ahamiyat kasb etmoqda.

### 3-jadval

**Moliyaviy texnologiyalar turlari [11]**

| N <sup>o</sup> | Moliyaviy texnologiyalar turlari           | Asosiy mazmuni                                                        | Qo'llash yo'nalishlari                                            |
|----------------|--------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|
| 1              | <b>Mobil banking</b>                       | Bank xizmatlarini mobil ilovalar orqali ko'rsatish                    | Pul o'tkazmalari, hisob raqamlarni boshqarish, onlayn to'lovlar   |
| 2              | <b>Raqamli to'lov tizimlari</b>            | Naqd pulsiz operatsiyalarni amalga oshirish                           | QR-to'lovlar, NFC texnologiyasi, elektron hamyonlar               |
| 3              | <b>Blokcheyn va kriptovalyuta</b>          | Ma'lumotlarni taqsimlangan reyestrda saqlash va virtual valyutalar    | Bitcoin, Ethereum, smart-kontraktlar                              |
| 4              | <b>Kraudfanding</b>                        | Loyihalarni jamoaviy moliyalashtirish                                 | Startaplarni qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy va madaniy loyihalar    |
| 5              | <b>Robo-maslahatchilar (Robo-advisors)</b> | Sun'iy intellekt asosida investitsion maslahat berish                 | Portfel boshqaruvi, moliyaviy rejalashtirish                      |
| 6              | <b>InsurTech</b>                           | Sug'urta sohasida innovatsion texnologiyalar                          | Onlayn sug'urta shartnomalari, tezkor risk baholash               |
| 7              | <b>RegTech</b>                             | Moliyaviy regulyatsiyani texnologiyalar orqali boshqarish             | AML/KYC jarayonlari, qonuniy muvofiqlik monitoringi               |
| 8              | <b>Neobanklar</b>                          | Faqat raqamli xizmat ko'rsatadigan banklar                            | To'liq onlayn xizmatlar, ofissiz bank amaliyotlari                |
| 9              | <b>Big Data va AI</b>                      | Katta ma'lumotlarni qayta ishlash va sun'iy intellekt                 | Kredit risklarini baholash, mijoz xatti-harakatini prognoz qilish |
| 10             | <b>SupTech</b>                             | Moliyaviy bozorlarni davlat nazoratida qo'llaniladigan texnologiyalar | Markaziy bank va regulyatorlar uchun monitoring tizimlari         |

4-jadvalda 2024-yil holatiga ko'ra eng yirik robo-maslahatchilar va ular tomonidan boshqarilayotgan aktivlar hajmi aks ettirilgan.

Mazkur jadvaldan ko'rinadiki, robo-maslahatchilar bozorida AQSh kompaniyalari mutlaq ustunlikka ega bo'lib, yetakchi

o'rinlarni aynan ushbu mamlakat platformalari egallamoqda. Xususan, Vanguard 47 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi aktivlar bilan bozorda yaqqol yetakchi hisoblanadi. Schwab

Intelligent Portfolios va Betterment kompaniyalari ham sezilarli hajmdagi aktivlarni boshqarib, bozordagi konsentratsiya darajasi yuqoriligini ko'rsatadi.

4-jadval

**Eng yirik Robo-maslahatchilar (mln. AQSh dollari, 2024) [12]**

| Nº | Kompaniya nomi                | Mamlakat        | Aktivlar hajmi (mln. \$) |
|----|-------------------------------|-----------------|--------------------------|
| 1  | Vanguard                      | AQSh            | 47 000                   |
| 2  | Schwab Intelligent Portfolios | AQSh            | 10 200                   |
| 3  | Betterment                    | AQSh            | 7 360                    |
| 4  | Wealthfront                   | AQSh            | 5 010                    |
| 5  | Personal Capital              | AQSh            | 3 600                    |
| 6  | Future Advisor (Blackrock)    | AQSh            | 808                      |
| 7  | Nutmeg                        | Buyuk Britaniya | 751                      |
| 8  | AssetBuilder                  | AQSh            | 671                      |
| 9  | Wealthsimple                  | Kanada          | 574                      |
| 10 | Financial Guard               | AQSh            | 454                      |
| 11 | Rebalance IRA                 | AQSh            | 403                      |
| 12 | Scalable Capital              | Germaniya       | 125                      |

Wealthfront va Personal Capital kabi platformalar esa raqamli investitsion xizmatlarga bo'lgan talabning barqaror o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Future Advisor'ning BlackRock tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yirik institutsional investorlarning robo-maslahatchilar bozoriga faol kirib kelayotganini anglatadi. AQShdan tashqaridagi Nutmeg, Wealthsimple va Scalable Capital kabi kompaniyalarning ulushi nisbatan kichik bo'lib qolmoqda. Bu holat Yevropa va Kanada bozorlarida robo-maslahatchilar rivoji hali AQSh darajasiga yetmaganini ko'rsatadi.

#### **Xulosa va takliflar.**

Kapital bozorida moliyaviy texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xosliklarini o'rganish asosida quyidagilarni ta'kidlash lozim:

1. Moliya tizimida raqamli transformatsiyani jadallashtirish uchun mobil banking, elektron hamyonlar, QR-to'lovlar va NFC texnologiyalarini ommalashtirish zarur. Bu nafaqat aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan kirishini soddalashtiradi, balki naqd pulsiz iqtisodiyotni shakllantirishga yordam

beradi, shuningdek, soliq tushumlari va iqtisodiy shaffoflikni oshiradi;

2. Blokcheyn texnologiyasi yordamida davlat xaridlari, bank operatsiyalari va qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatida shaffoflikni ta'minlash mumkin. Kriptovalyutalarni qonuniy tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur bo'lib, ular investitsiya oqimini oshirish va xalqaro hisob-kitoblarda qulaylik yaratishi mumkin;

3. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida P2P lending hamda kraudfanding tizimlarini kengaytirish lozim. Bu an'anaviy bank kreditlaridan tashqari yangi moliyalashtirish manbalarini yaratib, tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi va yangi ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi;

4. Robo-maslahatchilarning portfelnii boshqarish va soliq bo'yicha xarajatlarni kamaytirishdagi imkoniyatlarini alohida ta'kidlab o'tish lozim. Soliq yuki va soliq stavkasi baland bo'lgan mamlakatlarda robo-maslahatchilar xizmatlaridan foydalanish investorlarni kapital bozoriga keng ko'lamda jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ran Tao, Chi-Wei Su, Yidong Xiao, Ke Dai, Fahad Khalid. Robo-advisors, algorithmic trading and investment management: Wonders of fourth industrial revolution in financial markets // *Technological Forecasting and Social Change*, Volume 163, February 2021, 120421.
2. Karimov A. Ishlab chiqarish resurslaridan foydalangan holda korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*. – 2024. – T. 2. – No. 4.
3. Fayziyev S. S. Analysis of the financing of projects in the energy sector // *Sanoatda raqamli texnologiyalar*. – 2023. – T. 1. – No. 1. – P. 141-150.
4. Yakubova S. S., Po'latova M. S. Moliyaviy texnologiyalar bozori infratuzilmasini rivojlantirish yo'llari // *Spanish Journal of Innovation and Integrity*. – 2024. – P. 115-122.
5. The future of advisory: exploring the impact of robo on wealth management. // A finextra white paper produced in association with EPAM, September 2016. [https://www.epam.com/content/dam/epam/free\\_library/whitepapers/The\\_Future\\_of\\_Advisory.pdf](https://www.epam.com/content/dam/epam/free_library/whitepapers/The_Future_of_Advisory.pdf)
6. Chen, H., Zhang, L., & Liu, Y. Digital inclusive finance and enterprise digital transformation. *Finance Research Letters*, 2023. Elsevier. Available at: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1544612323006426>
7. Asongu, S., & Odhiambo, N. ICT, digitalization and financial development in Africa. *Cogent Economics & Finance*, 2024.
8. Li, Y., & Zhou, Q. Digital transformation, virtual economy, and corporate finance: Evidence from China. *Frontiers in Psychology*, 2023. National Library of Medicine. Available at: <https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10828698/>
9. Iqtisodiy adabiyotlar asosida muallif tomonida shakllantirilgan.
10. <https://www.weforum.org/stories/2025/07/fintech-growth-inclusion-financial-services/> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonida shakllantirilgan.
11. <https://www.bajajfinserv.in/what-is-fintech> sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.
12. <https://assets.kpmg.com/content/dam/kpmg/ie/pdf/2024/08/ie-the-race-for-robo-advice.pdf>